



## Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining ahamiyati (Xitoy va ASEAN misolida)

Jamolov Abdulloh Samariddin o'gli

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” yo’nalishi talabasi

### ABSTRACT

Mazkur maqolada mintaqamizdagi integratsion jarayonlar, ularning ahamiyati, mamlakat taraqqiyotidagi o’rni, iqtisodiy rivojlanishni yanada jadallashtirishdagi ahamiyati haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> February 2022

Revised: 11<sup>th</sup> March 2022

Accepted: 11<sup>th</sup> April 2022

### KEY WORDS

Integratsiya, Xitoy, ASEAN, savdo aloqalari, taraqqiyot, iqtisodiy taraqqiyot, shartnomalar, xalqaro tashkilot, jahon savdosи, Erkin savdo hududi, Bojxona ittifoqi, Umumiy bozor, Iqtisodiy ittifoq, raqobat

Bugungi murakkab va turli xil iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan Xitoy iqtisodiyoti jadal sur’atlarda rivojlanishda davom etmoqda. Buning sabab va oqibatlarini o’rganish barchamiz uchun foydadan xoli bo’lmaydi. Chunki iqtisodiy farovonlikbarcha mamlakatlar kuch-qudrati, taraqqiyoti, va kelajagining kafolati hamdir. O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish – hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi”.

Jahon iqtisodiyotida mintaqaviy integratsiya jarayonlari dunyo mamalakatlari o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy aloqadorlikni ta’minalashda bir qator qulayliklarni vujudga keltirib, ular:

- birinchidan xo’jalik subyektlari (Tovar ishlab chiqaruvchilarni) yetarlicha resurslar bilan ta’minalaydi.
- Bundan tashqari, jahon bozoriga mos keluvch raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.
- Uchinchidan, iqtisodiy entegratsiya jarayonlarida qatnashuvchi barcha davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-birlariga yaqinlashtirib, raqobatdan himoya qiladi.
- To’rtinchidan, iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy muaammolarini hal etish imkonini beradi.

Integratsyon jarayonlar mamlakatlarning o’zaro iqtisodiy birlashuvi va milliy davlatlar siyosiy shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Jahon tajribasini o’rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatning jahon xo’jaligiga qo’shilishini, bunda unga shijoat berishi va iqtisodiy rivojlanishi uchun tub burilish yasovchi tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o’sishni, kapital jamg’arishni, iqtisodiyotda ilg’or texnalogik

va tarkibiy o'sishlar bo'lishini, ishlab chiqarish, invistetsiyalarni boshqarish va ularning sifat va samaradorligini oshishini ta'minlashdan dalolat beradi. Har bir mamlakatning taraqqiyoti uning olib borayotgan strategik harakatlari, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlari darajasiga, ko'lami va nufuziga bog'liqidir. Mamlakatning integratsiya jarayonlariga imkon qadar tezroq kirishishi, davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yaratiladigan ma'lum darajadagi iqtisodiy foydani ifodalashi tabiiydir. Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida turli ko'rinishdagi integratsion uyushmalar faoliyat yuritib kelmoqda. Bu uyushmalarning eng asosiy masadlaridan biri, integratsiyaga a'zo davlatlar iqtisodiy rivojlanishini imkon qadartezlashtirishdan iboratdir. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalar ayni damda xo'jalik hayoti baynalmallashuvining oliv darajasidir. Integratsiya a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasida yanada chuqurroq xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keladi. Mahsulatlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi bilan jadal almashinuv jarayoni sodir bo'ladi.

Biroq hayot o'z ichki qonuniyatlar bilan rivojlanadi. So'nggi yillardagi iqtisodiy siyosatning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Xu Szintao rahbarlik qilgan yillarda Xitoydagagi bozor islohotlari to'xtatib yoki sekinlashtirib qo'yilgan emas, balki radikallashish fazasiga qadam qo'ysi. Sanoatni davlat tasarrufidan chiqarish va qayta tuzish jarayonlari jadallahdi. 2004-2006-yillarda davlat banklaridagi ustav kapitallari xorijiy strategik investorlarga sotildi. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida davlat paketlari sotib yuborilmoqda. Valuta tartibi rejimini liberallashtirish boshlandi. Xitoy tomonidan JSTga kirish maqsadida qabul qilingan majburiyatlar bajarilishi natijasida import to'siqlari va bojxona to'lovlar pasaytirilmoqda, xorijiy va milliy xususiy investorlar uchun avval yopiq bo'igan xo'jalik tarmoqlariga kirish uchun yo'l ochilmoqda.

Iqtisodiy integratsiya davlatning turli ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlararo yaqinlashuvga, aholining turmush darajasi oshishiga yordam beradi. Integratsiya jarayonlari jahonning barcha qit'alarni qamrab olmoqda. Buning natijasida ko'plab mintaqaviy va submintaqaviy savdo-iqtisodiy tashkilotlar vujudga kelmoqda. Integratsion guruhlarga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro hamkorligi ushbu davlatlarning bir-biriga iqtisodiy jihatdan chuqur kirib borishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy integratsiyaning to'rt asosiy ko'rinishi mavjud:

1. Erkin savdo hududi;
2. Bojxona ittifoqi;
3. Umumiyo bozor;
4. Iqtisodiy ittifoq.

Erkin savdo hududi – preferensial hudud hisoblanib, u o'z faoliyatida bojxona va miqdoriy cheklanishlardan holi savdo tartiblariga qat'iy rioya qiladi. Bojxona ittifoqi jahon iqtisodiyotida huquqiy nuqtayi nazardan ikki yoki undan ortiq davlatlar o'zaro uchinchi bir mamlakatga nisbatan yagona, soddalashtiriligan soliq siyosatining o'tkazilishini aks ettiradi. Integratsion jarayonlar rivojlanishining eng yetuk ko'rinishlaridan biri bu – umumiyo bozor va iqtisodiy ittifoqdir. Jahon iqtisodiyotida ko'plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma'lumki, integratsiya jarayonlarida aynan shu iqtisodiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko'p diqqatga sazovordir. Iqtisodiy ittifoq – integratsiyaning oliv formasi bo'lib, bunda qatnashuvchi davlatlar o'z iqtisodiy siyosatlarini, shuningdek, savdoga hamda ishchi kuchiga va sarmoya ko'chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. To'liq iqtisodiy integratsiya barcha a'zo mamlakatlar uchun valyuta siyosatini talab qiladi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati rasman maslahat maqomiga ega, biroq uning ishchi organlari doirasida savdo, investqiiya va moliya faoliyatini yuritishning mintaqaviy qoidalari belgilanadi, u yoki bu sohalarda hamkorlik masalalari bo'yicha tarmoq vazirlari va ekspertlarning uchrashuvlari o'tkaziladi. 1993 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati yetakchilarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi (Sietl, AQSh). Uchrashuv davomida mintaqada avj olayotgan integratsiya jarayonlaridan foyda ko'rish noto'g'ri taqsimlanishi yuzasidan jiddiy tafovutlar borligi aniqlandi. Ekspertlarning fikricha, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida savdoni erkinlashtirish a'zo mamlakatlarning real daromadlari 2 foizga o'sishiga olib kelishi kerak. Biroq foydani birinchi navbatda eng raqobatbardosh mamlakatlar oladilar.

Iqtisodiy integratsiya bir tomonidan, yangi twxnalogiyalardan xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o'stirishga ko'maklashsa, boshqa tomonidan, davlatning boy resurslari va ishlab

chiqarish imkoniyatlarining jahon xo'jaligiga qo'shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki Xitoy va ASEAN o'rtsidagi hamkorlik aloqalari 1970-yillarda boshlanib, 1990-yillarda o'zining rasmiy ifodasini topdi. Bugungi kunda hamkorlik darajasi muhim strategik ahamiyat kasb etadi. 2010-yil 1-yanvardan yo'lga qo'yilgan Xitoy va ASEAN erkin savdo hududi har ikki mamlakat o'rtasida savdo aliqalarida boj tariflarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Imtiyozli savdo siyosatining olib borilishi, past darajadagi boj to'lovlari hamda hududiy yaqinlik omillari tufayli 2015-yilga borib ASEAN Xitoyning savdo hamkorlari orasida birinchi o'rinni egalladi va umumiyl savdo hajmi 500 mlrd AQSh dollarga yetdi. ASEAN va Xitoy hamkorlik aloqalari bugungi kunda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Buning asosiy omili sifatida biz hududiy yaqinlikni ko'rsatishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda global darajada raqobatbardosh bo'lган yagona yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy mintaqani yaratish maqsadida integratsiya tamoyillari keng yo'lga qo'yilmoqda va ayni damda yetarli darajada kuchli xalqaro birlashma sifatida tan olinmoqda.

ShHT doirasida hamkorlik Xitoy uchun siyosiy emas, balki iqtisodiy manfaatlar ustun. Shanxay hamkorlim tashkilotida umumiyl strategiyaning muhim bo'lgani – bu iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish, tajriba almashish va turli sohalarda aloqalarni mustahkamlash, terrorizm va transchegaraviy jinoyatlar bilan kurashishni kuchaytirish, global boshqaruv tizimi, shu jumladan jahon moliya tizimiga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ShHTga a'zo barcha davlatlar og'ishmay rivojlanishiga ko'maklashish hisoblanadi. Biror mintaqaviy tashkilotda o'z ishtiroki istiqbollarini mamlakat o'z manfaatlari terminalida, shuningdek ushbu birlashmada ishtirok etishga uni undagan sabalardan kelib chiqib belgilaydi. Mazkur manfaatlar va sabablar mos kelishi, shuningdek, kelajakda rivojlanishning umumiyl istiqbollarini borasidagi qarashlar har qanday davlatlararo birlashma to'laqonli faoliyat yuritishining zaruriy shartidir. Shunday qilib har qanday mintaqaviy tashkilot negizida tashkilotga a'zo mamlakatlar manfaatlariga mos keluvchi umumiyl maqsad yotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" – Toshkent - "O'zbekiston".: - 2016.
2. Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. – T.: – 2011.
3. Melibayeva G.A., Gazihev F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. – T.: «JIDU» nashriyot – matbaa birlashmasi, – 2011.
4. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlар. – T.: T.: MChJ —RAM-SI, - 2007.
5. F.M. Aliyeva. XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki (Asean misolida). – Toshkent -2015.